

Maktabgacha ta'lism tashkilotida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishning ta'lism
tashkilotida autsorsing usulida sog'lom
ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida
15-sonli SHARTNOMA

2 02 2022-yil.

Yozyovon tumani.

Keyingi o‘rinlarda autsorser deb ataladigan “VODIY HEALTY FOOD” xk nomidan ustav (ishonchnoma, buyruq va h.k.) asosida faoliyat yurituvchi korxona rahbari A.Abdullayev bir tomondan, matnda keyingi o‘rinlarda buyutmachi deb ataladigan, ustav asosida faoliyat yurituvchi Yozyovon tumani mакtabgacha ta’lim bo‘limi nomidan rahbari X.Sarimsaqova ikkinchi tomondan (keyingi o‘rinlarda – tomonlar) O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2017-yil 9-sentyabr kungi № PP-3261 Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ”O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qarorlariga binoan ushbu shartnomani tuzdilar.

I. Shartnomaning predmeti

1.1. Yozyovon tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yhatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bir kunda 3 (uch) mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik), haftada 5 (besh) kun ovqatlantirish mazkur shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Tarbiyalanuvchilarni bir kunda 3 (uch) mahal ovqatlantirish bo'yicha taomnomalar 2-, 3- sonli davlat sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan kelishgan holda autsorser tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

1.3. Shartnoma qiymati 2-, 3 -sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida shartnoma tuzilgan kunda ro'yxatda turgan tarbiyalanuvchilar soni va mahsulotlar narxlariga muvofiq **54 281 888** (**ellik to'rt million ikki yuz sakson bir ming sakkiz yuz sakson sakiz**) so'mni tashkil etadi.

МТ Т	Тарбияланув-чилар сони				СанҚвам бүйіча бир нафар болани бир күнлик оқытлантириш харажати				Шартнома амал қилиш мүддати давоміда иш күнлари сони	Жами харажат	Үстемдік		Шартнома нг умумі күйматы
	Жам и	1-3 ең	4-7 ең	Киска гурұх	1-3 ең	4-7 ең	Киска гурұх				%	сумма	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	1	2		
2- МТМ	195	30	135	30	12141	14188	2500	20 кун	47092200	18	8476596	55568796	

ta`lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar sonining o`zgarishi hisobiga bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati shartnomada keltirilganiga nisbatan 10% va undan yuqori ko`rsatkichga farq qilgan hollarda shartnomaga tomonlarning kelishuviga asosan o`zgartirishlar kiritilishi mumkin.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Autsorserning huquqlari:

foydalilaniladigan communal xizmatlar qiymati belgilangan limit va davlat maktabgacha ta`lim tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag`lari doirasida qoplanishini talab qilish;

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalar, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanganlik uchun to`loymi nol stavka bo`yicha olish;

ko`rsatgan xizmatlar uchun to`loymi shartnomada belgilangan miqdor va muddatda talab qilish.

Autsorser qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin.

2.2. Autsorserning majburiyatları:

tarbiyalanuvchilarni sog`lom ovqatlantirish xizmatini tashkilot oshxonasing o`zida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq to`liq va sifatli tashkil etish;

taomlar tayyorlash texnologiyasi bo`yicha mutaxassislar (injener-texnolog, diyetolog, oshpazlar) bilan ta`minlash;

taomnomalar, tayyor taomlarning vazni, narxi, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari, texnologik kartalarning to`g`ri va to`liq yuritilishini ta`minlash.

Autsorserga qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

2.3. Buyurtmachining huquqlari:

autsorsing usulida ovqatlantirishni amalga oshirish uchun qo`yilgan talablar bajarilishini o`rganish;

tayyor taomlar sifatining taomnomaga muvofiqligini tekshirish; tayyor taomlarning miqdori, mazasi, tarkibidagi mahsulotlarning sifati bo`yicha kamchiliklar aniqlangan holatda vakolatli organlarga bildirgi kiritish;

xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, ularda foydalilaniladigan texnologik sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlarining sanitariya-gigiyena talablari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishiga rioya etilishini tasdiqlangan rejaga asosan nazorat qilish.

Buyurtmachi qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin.

2.4. Buyurtmachining majburiyatları:

foydalilaniladigan communal xizmatlar xarajatlarini belgilangan normalar asosida maktabgacha ta`lim tashkilotining xarajatlar smetasida mavjud byudjet mablag`lari va otanonalar to`lovidan tushumlar hisobidan qoplash;

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalar, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko`rsatilgan xizmatlar uchun shartnomada belgilangan miqdor va muddatda to`loymi amalga oshirish.

Buyurtmachiga qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

III. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish

3.1. Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti har kuni ertalab soat 9:00 ga qadar shu kuni tashkilotga kelgan, ovqatlantirilishi lozim bo'lgan tarbiyalanuvchilar soni bo'yicha belgilangan shaklga muvofiq austsorserga buyurtma beradi.

3.2. Autsorser davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti tomonidan taqdim etilgan tarbiyalanuvchilarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda taomnomalar tuzadi hamda ushbu taomnomada asosida ovqatlantirishni amalga oshiradi.

3.3. Autsorser har 10 (o'n) kunda buyurtmachiga kunlik taomnomalarni ilova qilgan holda hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini taqdim etadi.

3.4. Buyurtmachi:

har oyning 15 sanasiga qadar joriy oyning rejaviy ish hajmiga (shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab 30 foiz miqdorda oldindan to'lovlarni amalga oshiradi;

autsorser tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi asosida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha mablag'larni joriy oyning

25 sanasiga qadar autsorserga o'tkazib beradi (joriy oyning qolgan kunlari uchun to'lovlardan keyingi oy uchun to'lanadigan mablag'larga qo'shib o'tkaziladi).

IV. Shartnomalar bo'yicha javobgarlik

4.1. Autsorser quyidagilarga javobgardir:

ovqatlarni davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti oshxonasida yoki ixtisoslashtirilgan ovqatlantirish kombinatida tayyorlashga;

ovqat tayyorlashda tegishli sertifikat va sifatni belgilovchi boshqa hujjatlarga ega bo'lgan mahsulotlardan foydalanishga;

tayyorlangan ovqatlarning amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqligiga;

tayyorlangan ovqatlarning sifati buzilmasdan bolalarga berilishiga, bolalarga achigan, aynigan va boshqa ko'rinishda o'z sifatini yo'qotgan ovqatlarni bermaslikka;

taomnomada mahsulotlarning haqiqiy narxlarini hamda haqiqatda ovqatlangan bolalar sonini to'g'ri ko'rsatilishiga;

o'ziga biriktirilgan va tegishli shartnomalar asosida vaqtincha foydalanishga berilgan buyurtmachining mulkini but saqlanishi va tejamkorlik bilan foydalanishiga;

ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan shakllarga muvofiq hamda belgilangan muddatlarda buyurtmachiga taqdim etishga.

4.2. Buyurtmachi quyidagilarga javobgardir:

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur shartnomada belgilangan miqdor va muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga haqiqatda kelgan tarbiyalanuvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shakl va muddatlarda autsorserga topshirilishini ta'minlash.

V. Fors-major holatlар

5.1. Fors-major holatlarda, basharti, majburiyatni ijro etmaslik shartnoma tuzilganidan keyin ro'y bergan bartaraf etib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyat oqibati bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik bo'yicha tomonlar javobgar bo'lmaydi.

VI. Boshqa shartlar

6.1. Shartnoma yuzasidan kelishmovchiliklar talabnomaga yuborish va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan bartaraf qilinadi. Agarda tomonlar kelishuvga erishmasalar nizolar iqtisodiy sud yoki muvaqqat hakamlik sudi orqali hal etiladi.



6.2. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. Bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish amaldagi Sanitariya qoidalari va me'yordi bo'yicha amalga oshiriladi.

VII. Shartnomaning amal qilishi

7.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrga qadar amalda bo'ladi.

VIII. Tomonlarning rekvizitlari

Autsorser "VODIY HEALTY FOOD" XK Manzil: Farg'ona shahar Abay ko'chasi 50-yўй Tel/faks: 90-272-00-70 97-791-00-72 r/s: 2020 8000 4009 3731 7001 Bank: ATB "Kapitalbank" Farg'ona fili MFO: 01043 STIR: 305 833 613 OKED: 71300	Buyurtmachi Yozyovon tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi Manzil: Yozyovon tumani Tel/faks: - h/r * <u>100022860302427091100251020</u> Bank: Mark. Bank Toshkent sh. XKKM MFO: 00014 STIR: 305152725 Moliya vazirligi G'aznachiligi h/r 23402000300100001010 STIR:201122919
 Korxona rahbari A.Abdullayev	 YTM TB rahbari X.Sarimsaqova M.Q.

Huquqshunos _____

Файл: Аутсорсинг шартнома ёзёвон
Каталог: C:\Users\user 12\AppData\Roaming\Telegram Desktop
Шаблон: C:\Users\user 12\AppData\Roaming\Microsoft\Шаблоны\Normal.dotm
Заголовок:
Содержание:
Автор: User
Ключевые слова:
Заметки:
Дата создания: 28.01.2022 13:11:00
Число сохранений: 14
Дата сохранения: 28.01.2022 14:35:00
Сохранил: Пользователь
Полное время правки: 68 мин.
Дата печати: 28.01.2022 14:26:00
При последней печати
страниц: 4
слов: 1 560 (прибл.)
знаков: 8 897 (прибл.)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
TALABALARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**
Nº XR55825305

- 1. Loyihaning turi:** 05.01.2022 yildagi 15-sonli shartnoma.
- 2. Loyihaning nomi:** Tuman 2-3-maktabgacha ta'lif tashkilotlarida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida.
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi malumot:**
Yozyovon tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan 2022 yil 5 yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 17 yanvar kuni "E-huquqshunos" elektron tizim orqali huquqiy ekspertizaga taqdim qilingan.
- 4. Loyiha bo'yicha taklif:**
Loyiha amaldagi qonun hujjalari muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjalari muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yozyovon tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



A.A.Gulamov

17.01.2022